

Yoshlarning yangicha estetik tafakkurini tarbiyalashning ijtimoiy mohiyati

Ижтимоий тараққиёт жараёни ҳар бир давр учун ўзига хос ва ўзига мос замонавий тафаккурга эга бўлган инсонларни тарбиялаб, янгича дунёқараш асосида жамият ривожига туртки берувчи ёшларни вояга етказиб боради. Бу жараёнда халқнинг истиқболлини юқори чўққига олиб чиқувчи фалсафий дунёқараш тизимида эстетик тафаккурнинг роли кучли бўлиб, миллат тақдири, Ватан раънақ, юрт фаровонлиги йўлида ўзгача қиёфа касб этувчи давлатлар шаклланиб боради. Уларнинг ҳаракатлантирувчи кучи сифатида шахс ва давлат ўртасидаги ижтимоий муносабатлар тизими асосий рол ўйнаши лозим. Ўзбекистонда барпо этилаётган фуқаролик жамиятида ҳам бу масалалар ўзининг ёрқин ифодасини топмоқда. “Бугун биз янги давлат, янги жамият қураётган эканмиз, — деб таъкидлайди Президент Ислам Каримов, — бу тизимда ижтимоий-сиёсий муносабатлар, одамларнинг онги ва тафаккури ҳам ўзига хос, шу билан бирга, мутлақо янгича маъно касб этиши шубҳасиз. Аввало, шахс билан давлат, инсон билан жамият муносабатлари батамом янгича мазмун ва шакл топиши, янги хусусиятлар, янги тамойилларга асосланиши керак”[1].

Мамалакатимизда иjtimoiy-ma’naviy sohalardagi islohotlardan ko’zlangan asosiy maqsad xalqimizning ma’naviy yuksalishiga sharoit yaratish, xususan, yoshlarni insonparvar, vatanparvar, axloqiy-estetik jihatdan komil insonlar bo’lib yetishishlarining ilmiy asoslangan tarbiyaviy tizimini ishlab chiqish bo’ldi.

Yoshlarni bilimli, mas’uliyatli, siyosiy jihatdan idrokli, axloqan pok va ma’naviy barkamol bo’lib o’sishlarida estetik tafakkur ravnaqining ahamiyati katta.

Бугунги кунда мамалакатимизда ёшларда эстетик тафаккурни шакллантириш борасида juda katta ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Chunki estetik tafakkuri shakllangan va rivojlangan inson o’z xalqi tarixi, ma’naviy merosi va bugungi ijtimoiy taraqqiyotiga befarq bo’lmaydi, o’z hayoti va faoliyatini Vatan taraqqiyoti va istiqboli bilan chambarchas bo’laydi, o’zini millat, mamlakat va ijtimoiy-tarixiy hayotdan chetda tasavvur etmaydi.

Estetik tafakkur taraqqiyoti insonda faollikni, o’z ijodiy imkoniyatlarini sinab ko’rish va ro’yobga chiqarishga da’vat etadi. Ana shunday ijtimoiy-tarixiy va ma’naviy jihatdan nihoyatda zarur bo’lgan masala - yoshlar estetik tafakkurining shakllanishi va rivojlanishini tadqiq etish ham nazariy, ham amaliy jihatdan dolzarb masaladir.

Мамлакатимиз мустақилликнинг дастлабки кунларидан бошлаб ёшлар тарбиясига алоҳида эътиборини қаратди. Таълим-тарбия соҳасида миллий қадриятларни шакллантириш ва ривожлантириш асосий ўрин тутадиган

бўлди. Тарихимиз, маданиятимиз, миллий урф-одатларимизга эътибор кучайди. Ёшларда эстетик тафаккурни, миллий ғурурни шакллантириш ва мустаҳкамлашга алоҳида аҳамият берилаётганлиги фикрларимиз исботидир.

Бугунги кунда қобилиятли, билимли, маънавий, ахлоқий жиҳатдан камолотга етган, мустақил фикрлай оладиган, халқининг равнақи учун хизмат қилишга бел боғлаган, фидойий ёшларимиз жуда кўпчиликини ташкил этади. Улар Ватанига садоқатли бўлиш, миллий давлатимизнинг мустақиллигини мустаҳкамлаш, халқ маданияти, маънавияти, маърифатини янада ривожлантириш каби муҳим масалаларни ҳал қилишни ўз олдига мақсад қилиб қўйганлар.

Ёшларни миллий қадриятлар асосида эстетик тафаккурини тарбиялаш, уларда она-юртига муҳаббат туйғуларини, уни ҳимоя қилиш, асраб-авайлашга қаратилган интилишларини кучайтиришга ёрдам беради. Миллий жиҳатдан ўзлигини англаган инсонгина давлати олдида турган асосий мақсадлари нимадан иборатлигини тушуниб, халқ олдидаги масъулиятини чуқур англайди. Ёшларни миллий қадриятлар асосида эстетик тафаккурини тарбиялаш уларнинг ижтимоий фаоллигини оширишга хизмат қилиб, маънавий комилликка эришувида асосий ва белгиловчи омил вазифасини ўтайди.

Ўзбекистонда демократик тамойилларни амалга ошириш жараёнида ёшларнинг сиёсий фаоллиги, маънавий баркамол бўлиб тарбияланиши муҳим стратегик аҳамият касб этади. Чунки, демографик нуқтаи-назардан қараганда, мамлакатимизда ёшлар йиллар ўтиб давлат ислохотларини амалга оширувчи асосий кучга айланади. Табиийки, улар бугун қайси ғоя руҳида тарбия топса, фаолиятини ҳам шу ғоя асосида олиб борадилар. Таъкидлаш жоизки, ўсиб келаётган ёш авлод миллий қадриятларимизга содиқлик руҳида ҳамда миллий ғоя асосида камол топса, мамлакат келажаги буюк бўлиши муқаррардир.

Prezidentimiz Islom Karimov 1999 yil 8 dekabr kuni Konstitutsiya kuniga barishlangan tantanali majlisda so'zlagan nutqida mustaqillikning ilk yillaridan boshlaboq jismonan baquvvat, axloqan pok, estetik madaniyatli, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor vazifasi ekanligini ta'kidlagan edi.

Agar mamlakatimizda olib borilgan ma'naviy islohotlarni nazarda tutadigan bo'lsak, darhaqiqat, soʻrlom avlodni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Soʻrlom avlod dasturi yoshlarni nainki jismonan, ayni choʻrda, siyosiy, axloqiy, estetik va falsafiy tafakkuri mustaqillik davri va mustaqillik mafkurasiga mos keladigan, ma'naviy yuksak avlodni shakllantirish va rivojlantirishni ko'zda tutadi.

Yoshlar estetik tafakkuri va madaniyatini yuksaltirish, tarbiyalash oson ish emas. Ayniqsa bizning zamonamizda – mafkuraviy qarashlar goh oshkora, goh pinhona tus olgan, turli ekstremistik oqimlar va aqidaparastlar zaif irodali va tafakkuri tor yoshlarni o'z tomoniga o'ldirib olishga intilayotgan bir davrda bu masala nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun yoshlarning ijodkorlik tuyfularini ro'yobga chiqarish va rivojlantirish uchun, birinchi navbatda, ularni xalqimizning olijanob an'analari, purma'no o'g'itlari va tarbiyaviy an'analari bilan bahramand etish, tarix va bugungi davrni birlashtiruvchi ijtimoiy-falsafiy insoniy foyalar bilan qurollantirish zarur bo'ladi.

Estetik tarbiyaning eng asosiy vazifasi yoshlarni yot ta'sirlardan himoya qilish, hayotda zavq-shavq bilan yashashga o'rgatish, boshqalarga o'rnak bo'lib, boshqalarning havasini keltiradigan ma'naviy-ruhiy kamolotga erishishdan iboratdir.

Mustaqillik davrida yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy sohalarda, jamiyat a'zolarining ehtiyoji yo'lida qilinayotgan ishlarga jalb etish, faolligini yanada oshirish davlat siyosatining bosh vazifalaridan biriga aylandi. 1991 yili O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid Davlat siyosatining asoslari ishlab chiqilib, "Yoshlar to'g'risida"gi qonunni Oliy Majlis sessiyasida qabul qilinishi, "Kamolot" yoshlar jam'armasining 2001 yilda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatiga aylantirilganligi¹ singari ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik ishlar bunga yaqqol misol bo'ladi.

Mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz berayotgan bunday islohatlarning falsafiy-estetik mohiyatini yoshlar ongiga, tafakkuriga singdirib borish, ularni milliy istiqlol foyasi ruhida tarbiyalash qurilayotgan fuqarolik jamiyati ma'naviy dunyosining asosiy negizini tashkil qiladi. Chunki demokratik va fuqarolik jamiyatining vorislari va bunyodkorlari bo'lgan yoshlar go'zallik qonunlari asosida yashab va faoliyat ko'rsatib ijtimoiy hayotda faol subyekt sifatida gavdalanadilar.

¹ Давлат, жамият, оила ва ёшлар тарбияси муаммолари. "Ўзбекистон" 1997, 13-17-бетлар.